

IQTISODIY INQIROZ VA UNING XALQ XO‘JALIGI TARMOQLARIDAGI TA’SIRINI BAHOLASH

Beknazarov Behzod Baxtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

beknazarovbehzod@gmail.com

Xoshimova Sevara Baxromovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand

filiali Xoshimovas984@gmail.com

Sharipboyev Husanboy Marks o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi

Annotatsiya. Iqtisodiyot xalq xo‘jaligining eng katta qismini tashkil etadi.

Shuning uchun ham iqtisodiy inqirozning ta’siri xalq xo‘jaligi tarmoqlari: sanoat ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va h.k tarmoqlariga o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazadi. Ushbu maqolada biz iqtisodiy inqirozning kelib chiqish sabablari va xalq xo‘jaligidagi ta’sirini kamaytirishga doir masala va yechimlarni keltirib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jaligi, metallurgiya, rangli metallurgiya, tog’-kon.

Abstract. The economy is the largest part of the national economy. That is why the impact of the economic crisis has a significant impact on the sectors of the national economy: industrial production, agriculture, etc. In this article, we present the causes of the economic crisis and the issues and solutions to reduce its impact on the economy.

Key words: industrial production, agriculture, metallurgy, non-ferrous metallurgy, mining.

Аннотация. Экономика является самой крупной частью национальной экономики. Именно поэтому влияние экономического кризиса оказывает существенное влияние на отрасли национальной экономики: промышленное производство, сельское хозяйство и др. В этой статье мы представляем причины экономического кризиса, а также проблемы и решения по снижению его влияния на экономику.


Ключевые слова: промышленное производство, сельское хозяйство, металлургия, цветная металлургия, горное дело.

Kirish. Zamonaviy jamiyat barqaror iqtisodiy o'sish bilan ta'minlanishi mumkin bo'lgan turmush darajasi doimiy ravishda rivojlanishga intiladi. Ammo, iqtisodiy o'sish har doim ham bo'lavermaydi, tarixdan ham ma'lumki mamlakatlar iqtisodiyoti 3 xil holatga ega : iqtisodiy o'sish , iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy inqiroz (ya'ni iqtisodiy pasayish). Iqtisodiy inqiroz - bu mamlakat iqtisodiyoti o'z kuchining keskin pasayishi, odatda moliyaviy inqiroz natijasida yuzaga keladigan pasayish holatini ifodalaydi. Iqtisodiy inqiroz turg'unlik yoki iqtisodiy tushkunlik shaklida bo'lishi mumkin. Har qanday iqtisodiy inqiroz har doim individualdir. Shu bilan birga, barcha iqtisodiy inqirozlarda ko'p yoki umumiyligida tipik xususiyatlar mavjud. Eng umumiyligida tipik xususiyat – boshqaruvning barcha darajalarida barcha turdag'i iqtisodiy inqirozlar mavjud barcha resurslar yetishmasligi(nafaqat tabiiy , moddiy-texnik, insoniy va axborot balki tashkiliy va boshqaruv), milliy xo'jalik majmuasi, mamlakat xalq xo'jaligi yoki butun dunyoning mavjudligi. Agar barcha turdag'i resurslar birlashtirilmasa bu holat iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin.

Sanoat ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat ob'ektiv reallik (borliq)ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo'lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ham ob'ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma'lum davr (vaqt va fazoda) dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalari asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zarurat va imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo'lgan. Sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilonan foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy

resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Iqtisodiy inqirozlar sanoat ishlab chiqarishiga o'zining yomon ta'sirini o'tkazadi. Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i. 2023-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda 69,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 11,6 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,7 % i) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (11,3 %) Farg'ona viloyatiga, 7,1 mingtasi (10,3 %) Toshkent viloyatiga, 6,1 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga va 5,5 mingtasi (7,9 %) Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda.



Barchamizga ma'lumki 2020 butun dunyo, shu jumladan O'zbekistonda ham pandemiya holati jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Pandemianing global jarayonga aylanishi natijasida dunyo mamlakatlari, O'zbekiston iqtisodiyoti ham inqiroziy holatga tusha boshladi. Bunda jamiyatning sog'liqni saqlash, savdo-sotiq, ishlab chiqarish kabi ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ko'rinarli darajada putur yetdi. Xususan, O'zbekistonda karantin choralarini joriy qilingan dastlabki davrdagi iqtisodiy faollik susayishining eng quyi ko'rsatkichlari aprel oyining birinchi dekadasida kuzatilib, tovar xom-ashyo birjasida savdolar bitimlari hajmi o'rtacha 30 foizgacha, ayrim tovarlar bo'yicha sotish hajmi esa, 80 foizgacha tushib ketdi. Aprel oyining 1-27 kunlarida mart oyining mos davriga nisbatan Respublika bo'yicha jami pul tushumlari

45 foizga, bunda, mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumlar 31 foizga hamda pullik xizmatlar sohasidan keladigan tushumlar esa qariyb 2,7 barobarga qisqarishi kuzatildi. 2020-yilda pandemiya tufayli sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 26,1 % ga va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 7,3 % ga pasayishi kuzatildi.

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdagisi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Ko‘mir, ming t.	2 715,7	2 635,9	-79,8
Neft, ming t.	525,1	553,4	28,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	44 878,4	36 077,4	-8 801,0
Gaz kondensati, ming t.	1 565,4	1 022,7	-542,7
Chaqiq tosh, ming t.	1 466,8	1 432,5	-34,3
Shag‘al , ming t.	431,9	215,8	-216,1
Kaolin, ming t.	147,2	240,6	93,4

Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston respublikasi davlat statsistika qo‘mitasidan olingan pandemiya ya’ni 2019-2020-yillardagi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining pasayishini ko‘rsatuvchi tog‘-kon ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ko‘rinishi.

Statistika qo‘mitasining ma’lumotlari bo‘yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 256,7 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 97,3 % ni tashkil etdi.Bu yerda ham sanoat ishlab chiqarishning pandemiya davridagi pasayishini ko‘rshimiz mumkin.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	14 196,2	13 480,2	-716,0
Portlandsement, ming t.	7 559,1	7 753,4	194,3
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	8 136,0	8 032,0	-104,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	763,4	723,4	-40,0
Avtomobil benzini, ming t.	758,1	769,1	11,0

O'zbekiston Respublikasida 2019-2020-yillarda Iqtisodiy inqiroz barcha xalq xo'jalik sohalariga birdek yomon ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun quyida yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoatidagi pasayishni ko'rshimiz mumkin.

**Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoati
2020- yilning yanvar-sentabr oylarida**



Sanoat milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining farovonligini oshirishda imidjining ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston sanoati juda katta tarixiy yo'lni bosib o'tdi va istiqlol yillarda tubdan o'zgarib, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojlana boshladi. Mustaqillik yillarda Respublika uchun mutlaqo yangi bo'lgan avtomobilsozlik, matorsozlik va ularga butlovchi qismlar tayloraydigan sohalarga, neft va gazni qayta ishlaydigan, farmasevtika, zamonaviy televizor va kompyuterlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlariga asos solindi. Sanoat ishlab chiqarishi ayniqsa keyingi o'n yil ichida jadal rivojlandi. Oqibat natijada O'zbekiston dunyoning sanoati rivojlangan

mamlakatlari safidan joy oldi. O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini yana ham rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar, ya'ni - juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ulardan oqilona foydalanish asosida respublika sanoatini qudratli sanoatga aylantirish va samaradorlik jihatidan uni yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Cheremnix Yu.N.Mikroiqtisodiyot. Ilg'or Darjasasi: Tutorial. - M .: Nits INFRA-M, 2015 .-- 844 p.
- 2) Bychenko Yu.G.inson kapitalini barqaror rivojlantirishning innovatsion mexanizmi. - M .: LAP Lambert akademik nashriyoti, 2014 .-- 532 p.
- 3) Bekker G:Inson Kapitali. 2-nashr. Kolumbiya Universiteti Matbuoti, New York; 1964. Pp.61-64
- 4) Neyman F. inson kapitalini iqtisodiy baholash usullari // Davlat boshqaruvi: zamonaviy dunyoda transformatsiya jarayonlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. 2-qism. - Minsk: Belarus Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruuv Akademiyasi, 2015 yil. - 98 p.
- 5) Baxshiyan D. V., Zeveke O. Yu. Inson kapitali zamonaviy dunyo muammolariga javob sifatida samarali korxonaning asosiy manbai hisoblanadi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni boshqarish. - 2017. - No. 3
- 6) <http://hdr.undp.org/en/content/human-development-index-hdi>